

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.A.Mamajonov O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xuquqiy va axloqiy-me'yoriy munosabatlar, o'zaro muloqot madaniyati	547
B.A.Pulatov Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning istiqboldagi vazifalari	550
K.I.Marayimova Bo'lajak o'qituvchilarni turizm faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari ...	554
N.M.O'rinova, G.I.Tillabayeva Talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirish usullari	559
D.I.Asqarova Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirish omillari	563
M.Q.Jabborova, Sh.D.Raxmatjonov Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik, intellektual va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda ilk davrning o'ziga xos xususiyatlari	571
M.Q.Jabborova Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamonaviy sifatiga erishish omillari	574

FALSAFA

A.A.A.Qambarov "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" konsepsiyasini amalga oshirishda diniy qadriyatlar omilining innovatsion xususiyatlari	581
I.M.Arzimatova Boshqaruv kadrlari faoliyatida ma'naviyatning o'rnini	585
D.E.Normatova Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati	590
I.A.Asatulloev Karl Yung qalb konsepsiyasida sharq va g'arb xalqlari ma'naviy hayotining qiyosiy tahlili	595
T.Y.Bakirov, S.A.Soxibov Korrupsiyaviy munosabatlarni oldini olishning falsafiy-analitik tahlilining ta'limiy jihatlari	599
S.S.Evatov Kalom ilmining vujudga kelishi va uni islomdagi aqidaviy masalalarni o'rganishdagi o'rnini	604
I.Y.Toirov Sivilizatsiya masalalarining nazariy - metodologik jihatlarni o'rganish muammolari	608
A.M.Rasulov Axborot va axborot makoni tushunchasi, ularning falsafiy tahlili	612
A.A.Sayitxonov Jamiyat va shaxs rivojida qadriyatlarning o'rnini	616
F.A.Yuldashev Socio-philosophical analysis of categories of needs and interests	620
S.P.Tojiboyev Boshqaruv kadrlarining axloqiy madaniyati va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili	627
B.X.Mirzaraximov, B.T.Shokirov Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy mezonari	633
M.A.Abduxamidov Sovetlarning O'zbekistondagi masjidlariga munosabatining tahlili	637

SIYOSAT

J.A.Dadaboyeva Farzandlikka olishni bekor qilish asoslari	640
A.A.G'aniyev Yangi iqtisodiy siyosat sharoitida O'zbekiston qishloq xo'jalik kooperativlari faoliyati	645

TARIX

B.A.Usmonov "Sohibqiron" atamasining kelib chiqishi va ma'nosiga oid fikrlarga bir	650
--	-----



UO'K: 372.2

INNOVATION YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI**ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСТВА БУДУЩИХ ПЕДАГОГИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА****FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY OF FUTURE TEACHERS BASED ON AN INNOVATION APPROACH**

Asqarova Dilafurx Ibroximovna 
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanib bo'lajak tarbiyachilar kreativligini rivojlantirishda bo'lajak tarbiyachi asosiy ob'ektga aylanadi. Shuning uchun oliy ta'lim tizimida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy ta'lim berish metodlari-interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. O'qituvchi bu jarayonda bo'lajak tarbiyachini rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishi, kreativ takomillashuviga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Bo'lajak tarbiyachining maqsadli natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: kreativ rivojlanishga erishishga qaratilgan, bunda bo'lajak tarbiyachilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, kreativ rivojlanganligi sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va bo'lajak tarbiyachiga bog'liq.

Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interfaol metodlar bo'lajak tarbiyachilarni bilimli, kreativ, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Bo'lajak tarbiyachilar kreativligini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim jarayoni, uni samarali tashkil etish, ta'lim samaradorligini aniqlash kabi masalalar batafsil ochib berilgan. Ta'lim berish metodlarini ikki guruhga ajratib tavsiflangan. Birinchi guruhga ta'lim berish texnologiyalari va ikkinchi guruhga esa o'qish usullari kiritilgan.

Аннотация

В процессе обучения с использованием инновационных технологий будущий воспитатель станет объектом развития творческих способностей будущих воспитателей. Поэтому место и роль современных методов обучения – интерактивных методов, инновационных технологий в подготовке квалифицированных специалистов в системе высшего образования очень важны. В этом процессе воспитатель создает условия для развития, становления, воспитания и обучения, творческого совершенствования будущего воспитателя и одновременно выполняет функции управления и обучения.

Выбор технологии достижения целевого результата остается за будущими воспитателями, поскольку основная цель обеих сторон ясна: достижение творческого развития, при котором уровень знаний будущего воспитателя, характер группы и творческое развитие будущих воспитателей выбираются в зависимости от условий, например, для достижения результата потребуются раздаточные материалы, рисунки и плакаты, различная литература, информационные технологии, это зависит от учителя и будущего воспитателя.

Знания, опыт и интерактивные методы педагогической технологии и педагогические навыки обеспечили будущим воспитателям знания, творческие и профессиональные навыки. Подробно раскрываются такие вопросы, как учебный процесс, его эффективная организация, определение эффективности образования посредством использования педагогических технологий в развитии творческих способностей будущих воспитателей. Методы обучения разделены на две группы. В первую группу входят технологии обучения, во вторую группу – методы обучения.

Abstract

In the learning process using innovative technologies, the future teacher will become the object of developing the creative abilities of future teachers. Therefore, the place and role of modern teaching methods — interactive methods, innovative technologies in the training of qualified specialists in the higher education system is very important. In this process, the teacher creates conditions for the development, formation, education and training, creative improvement of the future teacher and at the same time performs the functions of management and training.

The choice of technology for achieving the target result remains with the future teachers, since the main goal of both parties is clear: achieving creative development, in which the level of knowledge of the future teacher, the nature of the group and the creative development of future teachers are selected depending on the conditions, for example,

handouts will be required to achieve the result, drawings and posters, various literature, information technology, it depends on the teacher and future educator.

Knowledge, experience and interactive methods of educational technology and teaching skills provided future teachers with knowledge, creative and professional skills. Issues such as the educational process, its effective organization, and determining the effectiveness of education through the use of pedagogical technologies in the development of the creative abilities of future teachers are discussed in detail. The teaching methods are divided into two groups and described. The first group includes teaching technologies, the second group includes teaching methods.

Kalit so'zlar: Ta'lim, bo'lajak tarbiyachi, interfaol metodlar, innovatsion texnologiya, kreativ, pedagogik jarayon, metod.

Ключевые слова: Образование, будущий педагог, интерактивные методы, инновационные технологии, творческий подход, педагогический процесс, метод.

Key words: Education, future teacher, interactive methods, innovative technologies, creative approach, pedagogical process, method.

KIRISH

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanib bo'lajak tarbiyachilar kreativlikni rivojlantirishda interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda bo'lajak tarbiyachilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari izlanib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda bo'lajak tarbiyachini rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishi, kreativ takomillashuviga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanib bo'lajak tarbiyachilar kreativligini rivojlantirishda bo'lajak tarbiyachi asosiy ob'ektga aylanadi. Shuning uchun oliy ta'lim tizimida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy ta'lim berish metodlari-interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'рни va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interfaol metodlar bo'lajak tarbiyachilarni bilimli, kreativ, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Innovatsiya (inglizcha innovation) — yangilik kiritish, yangilikdir[4]. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va bo'lajak tarbiyachi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan innovatsion vositalar va interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi. Interfaol metodlar — bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi[5]. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va bo'lajak tarbiyachilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: bo'lajak tarbiyachilarning mashg'ulot davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish, kreativ bo'lish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va izlanishga majbur etishi; bo'lajak tarbiyachilarni o'quv jarayonida ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi; bo'lajak tarbiyachilarning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga kreativ yondoshgan holda kuchaytirishi; pedagog va bo'lajak tarbiyachining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi — bu o'qituvchi va bo'lajak tarbiyachining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni ta'lim berish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va bo'lajak tarbiyachi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida bo'lajak tarbiyachilar mustaqil fikrlay olsalar, kreativ fikrlay olsalar, izlansalar, tanqid va tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, mazkur jarayon ta'lim berish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir mashg'ulot, mavzu, o'quv fanining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya — bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u bo'lajak tarbiyachining extiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir[7].

PEDAGOGIKA

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, bo'lajak tarbiyachilar kreativligini rivojlantirishni amalga oshirish va kafolatlangan natijaga erishish, ham o'qituvchi, ham bo'lajak tarbiyachining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlagan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq. O'qituvchi va bo'lajak tarbiyachining maqsadli natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: kreativ rivojlanishga erishishga qaratilgan, bunda bo'lajak tarbiyachilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, kreativ rivojlanganligi sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va bo'lajak tarbiyachiga bog'liq. Shu bilan bir qatorda ta'lim berish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, bo'lajak tarbiyachining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi kreativ faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, bo'lajak tarbiyachini ta'limda kreativ rivojlantirishning markaziga olib chiqish kerak.



1.1.rasm. Pedagogik texnologiyaning tarkibiy unsurlari.

Bo'lajak tarbiyachilarni ta'limda kreativ rivojlantirishning markaziga olib chiqishda zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalaniladi. Hozirda biz tavsiya etadigan metodlar bo'lajak tarbiyachining kreativligi bo'yicha bilimni baholashga, mavjud imkoniyatdan foydalana olishlarini aniqlashga va kelajakka maqsadli reja tuza olishlariga sharoit yaratadi. Ushbu metodlarga "Assisment", "Nilufar guli", "Muammoli vaziyat", "Loyihalash", "Keys-stadi"larni namuna sifatida keltiramiz.

NATIJA VA MUHOKAMA

"Assisment" metodi. "Assesment" inglizcha "assessment" so'zidan olingan bo'lib, "baho", "baholash" ma'nolarini bildiradi[2,7]. Assisment metodi bo'lajak tarbiyachilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta'minlovchi topshiriqlar to'plami bo'lib, u biografik anketa, ta'lim sohasidagi yutuqlar bayoni, o'quv individual topshirig'i, bahsmunozara, intervyu, ijodiy ish, test, individul keys, taqdimot. Bu metod asosan quyidagi uch maqsadga xizmat qiladi: bo'lajak tarbiyachilarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama, xolis baholash; bo'lajak tarbiyachilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash; bo'lajak tarbiyachilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan istiqbol reja (maqsadli dastur)ni shakllantirish.

Mazkur texnologiyaning yaratilish tarixi o'tgan asrning 30-40- yillariga borib taqaladi. Dastlab texnologiya mavjud harbiy vaziyatlarni to'g'ri baholay oladigan, harbiy harakatlar jarayonini samarali boshqaradigan, zarur o'rinlarda oqilona harakatni tashkil eta oladigan ingliz hamda nemis harbiylari orasidan bilimdon, tadbirkor, kreativ, mahoratli harbiylar, shuningdek, ofiserlarni tanlash maqsadida qo'llanilgan.

Keyinchalik bu metod tadbirkorlik sohasiga ham samarali tatbiq etildi. Metodni birinchi marta 1954-yilda "AT&T" kompaniyasi tomonidan tadqiqot dasturlarini amalga oshirish doirasida qo'llanilgan.

To'rt yildan so'ng malakali menejerlarni tanlash maqsadida qo'llanila boshlangan ushbu metod negizida tadbirkorlar va psixologlar bilan hamkorlikda mazkur texnologiya yordamida ishlab chiqarish, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini hamda tashkilotlar uchun malakali mutaxassislarni tanlash xizmati – "Assisment-markaz" ("The Assessment Centre") faoliyatini yo'lga qo'yildi.

1960 yilda "IBM", "Standart oyl of Ogayo", "Sirs Robaks" kabi yirik amerika kompaniyalari o'z faoliyatlariga ushbu texnologiyani samarali tatbiq etdilar[2]. Agar 1980 yilda 2000 ta firma "Assisment-markaz" asosida malakali mutaxassislarni tanlashni ma'qul ko'rgan bo'lsa, hozir bu texnologiyadan o'n minglab korxonalar, tashkilot, firma va kompaniyalarda samarali foydalanmoqda.

So'nggi yillarda mazkur texnologiya ta'lim tizimiga ham samarali joriy etildi. Uning yordamida bo'lajak tarbiyachilarning bilim, ko'nikma, malaka va kreativliklari darajasi har tomonlama, xolis baholanmoqda.

Bo'lajak tarbiyachilar kreativligini rivojlantirishda "Assisment" metodidan o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida (mashg'ulot boshlanish yoki mashg'ulot oxirida yoki o'quv predmetning biron-bir bo'limi tugallanganida) o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin ta'lim oluvchilarning bilimlarini tekshirib olish maqsadida foydalaniladi.

Ushbu metodni mashg'ulot jarayonida yoki mashg'ulotning bir qismida hamda yakka tartibda qo'llash mumkin. Bu metoddan uyga vazifa berishda ham foydalansa bo'ladi.

"Assisment" metodi bo'yicha turli darajali topshiriqlardan foydalangan holda amaliy mashg'ulotning tuzilishi

1.1.jadval

Vazifalar		Ta'lim jarayonidagi o'zaro ta'sir	
"Assisment" metodi bo'yicha bilim darajalari	turli darajali vazifalar	O'qituvchining harakatlari	bo'lajak tarbiyachilarning harakatlari
Bilim	faktlar, atamalar, jarayonlar, tasniflar esda saqlash;	bo'lajak tarbiyachilar bilan birgalikda kalit so'zlarni tahlil qilish «klaster»	eslash, nomlash, tuzatish, farqlash, takrorlash, yodlash, o'zgartirish, ma'lumot berish, tasvirlash, aytib berish bilimlarni namoyish etish, qisqacha ma'lumot berish
Tushunish	faktlarni tushuntirish, sharhlash, materialni izohlash qobiliyati	muhokama qilish, aniqlash, «Loyihalash»	ma'lumot yig'ish, reja tuzish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish, xulosalash
qo'llash	bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llash qobiliyati	topshiriq bilan tanishtirish, bajarish muddatini belgilash va baholash tizimini e'lon qilish. Ta'lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratish va topshiriqlarni taqsimlash. «keys-stadi»	kichik guruhlarda vaziyatlarni tahlil qilish, vaziyatlarni hal etish yo'llarini ishlab chiqish, muxokama, tahlil qilish va baholash
Tahlil	yaxshiroq tushunish uchun butunni qismlarga bo'lish qobiliyati	o'quv-bilish faoliyat darajasini yashirin taxminlarni aniqlash, fikrlash mantig'idagi xato va kamchiliklarni ko'rish, faktlar va oqibatlarini farqlash qobiliyati tekshirish («nilufar guli»)	tahlil qilish, baholash, guruhlash, hisoblash, tasniflash, qiyoslash, bog'lash, farqlash, tadqiq qilish, tajriba o'tkazish, tushuntirish, xulosalash, tuzish, shubha qilish, bog'lash, tanlash, tekshirish.

PEDAGOGIKA

Sintez	yangi butunlikni yaratish uchun elementlarni birlashtirish qobiliyati	ixtiro qilish, o'zgartirish, tashkil qilish, rejalashtirish, tayyorlash, taklif qilish, qayta guruhlash, qayta yozish, o'rnatish, almashtirish aniqlash («muammoli vaziyat».)	asosiy atamalardan foydalanish, formuladan foydalanish, shuningdek, guruhlash, jamlash, birlashtirish, tuzish, yaratish, rivojlantirish, shakllantirish, umumlashtirish, birlashtirish,
Baholash	ma'lum standartlar asosida ma'lumotlarning qiymatini yoki foydalanishni baholash qobiliyati	«Tafakkurning olti shlyapasi» texnikasidan ((E. Bono) foydalanib, «shlyapa»lardan birining pozitsiyasini hisobga olgan holda guruh-yangi yoki individual ishni tashkil qilish	echilgan masalani tashxizlash; avvalgi masalani echishda tanqidiy nazar bilan qarab, boshqa yo'l bilan echishni taklif etish; echilgan masalani to'g'ri echilganini tekshirish; echilgan masalani to'g'ri echilganini aniqlash

Bo'lajak tarbiyachilar kreativligini rivojlantirish jarayonida bo'lajak tarbiyachilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga kreativ yondoshish, mas'uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga pedagogga va o'zi tanlangan kasbiga nisbatan kreativligini kuchaytiradi. Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi. Ular juda xilma-xildir. Biz ulardan ba'zilari haqida to'xtalib o'tamiz va ularni o'tkazish tartibi haqida qo'llanma beramiz. Ushbu metodik qo'llanmada keltirilgan zamonaviy metodlar, yoki ta'lim berishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar bo'lajak tarbiyachilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, kreativ, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, kreativ rivojlangan mutaxassis bo'lishlariga yordam beradi.

Bizning fikrimizcha, oliy ta'lim tizimida mashg'ulotlarni o'tkazishda ta'lim texnologiyalari va bir qator fanni ta'lim berishda foydalaniladigan ta'lim metodlari mavjud, ulardan ta'lim jarayonida muntazam foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bulardan: klaster, loyihalash, keys-stadi, nilufar guli, muammoli vaziyat va boshqalar.

Interfaol so'zi inglizcha so'z bo'lib, «inter» — o'zaro va «act» — harakat qilmoq ma'nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol — ya'ni o'zaro harakat qilmoq ma'nosini anglatadi[2,4]. Bunday o'zaro harakat turlariga "bo'lajak tarbiyachi – o'qituvchi" va "bo'lajak tarbiyachi-bo'lajak tarbiyachi"ning maqsadli harakatlarini kiritish mumkin. Interfaol ta'lim berishda o'qituvchi o'quv faoliyatining faol tashkilotchisi bo'lib, bo'lajak tarbiyachilar bu faoliyatning sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi.

Interfaol ta'lim berish bu innovatsion faoliyatini rivojlantirishning maxsus tashkiliy shakli bo'lib, interfaol ta'lim berish jarayonida ta'lim oluvchi ta'lim berishning ob'ektidan o'zaro hamkorlikning sub'ektiga aylanishi, o'quv jarayonida faol ishtirok etishi bilan tavsiflanadi.

Bo'lajak tarbiyachilar kreativligini rivojlantirishda interfaol metodlari hayotiy vaziyatlarni loyihalashtirish, rolli o'yinlardan foydalanish, muammolarni hamkorlikda yechishda ko'rib chiqiladi. Interfaol ta'lim berish bo'lajak tarbiyachilardan axborotlarni o'zlashtirish jarayonida faollik, ijodkorlik, kreativlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, ta'lim maqsadlarining to'laqonli amalga oshishiga yordam beradi. Bunda ta'limning quyidagi kontseptsiyalari fundamental asos sifatida xizmat qiladi:

- bo'lajak tarbiyachilar kreativligini rivojlantirishda o'qituvchining tezkor faoliyati – o'quv faoliyatining asosiy ko'rinishi sifatida namoyon bo'lib, u mazkur harakatning sub'ekti va tashkilotchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi;

- innovatsion faoliyatining asosiy negizi va natijasi, mazkur faoliyatning sub'ekti – bo'lajak tarbiyachi hisoblanadi;

- muvaffaqiyatli innovatsion faoliyatining asosiy ko'rsatkichi, uning natijasi bo'lajak tarbiyachilarning fikrlash usullarini o'rganish va amaliy masalalarni kreativ hal etish, erkin, mustaqil harakat qila olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat;

- innovatsion faoliyatning asosiy ko'rsatkichi o'quv topshiriqlari hisoblanadi.


Bunda ta'lim jarayonining asosiy sub'ekti bo'lgan bo'lajak tarbiyachida fikrlash, kreativ harakati usullarini rivojlantiruvchi ta'lim berish taktikasi muhim o'rin tutadi;

- o'quv faoliyatini amalga oshirish jarayoni bo'lajak tarbiyachidan o'zining shaxsiy kreativlik mahorati va ko'nikmalarini o'zlashtirib olishi uchun zamin hozirlashdan iborat.

O'quv jarayonining interfaol ta'lim texnologiyalariga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda, hatto "bo'lajak tarbiyachilar o'yini" kabi taassurot uyg'otadi.

"Keys-stadi » metodi.

Metodning maqsadi: Bu interfaol metod bilimlar shakllanishiga, nazariy bilimlarni amalda qo'llashga tayyorgarlik, tanqidiy, tahliliy, tashabbuskorlik, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda mavjud vaziyatni real baholay olish maqsadida foydalanish mumkin.



"Nilufar guli" metodi.

Metodning maqsadi: trener-o'qituvchi bo'lajak tarbiyachilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;

- trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;
- har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan chizma bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;
- navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

PEDAGOGIKA

	B	
	D	

	Z	
B	Z	C
D	A	F
G	H	Y
	H	

	C	
	F	
	Y	

Fikrimizcha, dissertatsiya ishimizni ko'rsatib beradigan model tuzishni ma'qul ko'rdik. Mazkur modelda bo'lajak tarbiyachilar kreativligini rivojlantirish ijtimoiy ehtiyoj sifatida qaralib, ushbu model uch blokdan tashkil topgan: tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirish maqsadi; tarbiyachilarni kreativ rivojlantirish jarayoni; kreativligi rivojlangan tarbiyachi. Bo'lajak tarbiyachilarni kreativligini rivojlantirish maqsadi blokida kreativlikni rivojlantirish tamoyillari, omillari va ta'limni jarayonini tashkillashtirish orqali kelajak avlodga ta'lim-tarbiya beradigan faoliyat maqsadi ochib berilgan. Tarbiyachi qachon o'zi kreativ bo'lsagina u ta'lim-tarbiya berayotgan maktabgacha yoshdagi bolalarni kreativligini rivojlantira oladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi borliq olam haqida ilk tasavvurlarni berish bilan bir qatorda mustaqil fikrlovchi, zamon bilan qadam-baqadam rivojlana oladigan komil va kreativ shaxsni tarbiyalashdir. Mana shu oliy maqsadga xizmat qiluvchi jarayonlar mazkur modelda o'z tasdig'ini topgan.

Ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kreativligini rivojlantirish jarayoni blokida esa kreativligini rivojlantirish bosqichlari, kreativ rivojlanganlik mezonini, kreativ rivojlanganlik darajalari qisqacha jadval ko'rinishida keltirilgan. Har bir amaliy faoliyatning maqsadga eltuvchi jarayonlari mavjudki, mazkur jarayonlar natijaga eltish yo'lini yaqqol belgilab beradi. Hayotda har bir to'laqonli shakllangan tarbiyachining maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalashda albatta, ezgu maqsadi mavjud bo'ladi. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun bir necha bosqichlarni bosib o'tadi. Mazkur jarayonda har bir kreativlikka intilgan bo'lajak tarbiyachi o'zining kreativ qobiliyatlarini namoyish etadi. Shuningdek, natijadorlikka erishadi.

XULOSA

Bo'lajak tarbiyachilar kreativligini rivojlantirishning tashkiliy shakllari oliy ta'lim tizimida olib boriladigan dars mashg'ulotlari jarayonida ochib berilgan. Bo'lajak tarbiyachilar kreativligini rivojlantirishning tashkil etish jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning bilim salohiyatlari ham inobatga olingan.

Bo'lajak tarbiyachilar kreativligini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim jarayoni, uni samarali tashkil etish, ta'lim samaradorligini aniqlash kabi masalalar batafsil ochib berilgan. Ta'lim berish metodlarini ikki guruhga ajratib tavsiflangan. Birinchi guruhga ta'lim berish texnologiyalari va ikkinchi guruhga esa o'qish usullari kiritilgan.

Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanib bo'lajak tarbiyachilar kreativligini rivojlantirish bosqichlari keltirib o'tilgan va ilmiy izohlab berilgan. Bo'lajak tarbiyachilar kreativligini rivojlantirishda turli innovatsion metodlardan foydalanish usullari misollar bilan keltirilgan.

Bo'lajak tarbiyachilar kreativligini rivojlantirish jarayonida bo'lajak tarbiyachilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga kreativ yondoshish, mas'uliyatni sezish,

ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga pedagogga va o'zi tanlangan kasbiga nisbatan kreativligini kuchaytirish sabablari asoslangan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Torrance P. Creativity and futurism in education: Retooling. Education.1980. Vol.100. P.298-311.
2. Tursunov J.Ye. O'quvchilarda kreativ qobiliyatlarni shakllantirishda yevristik ta'lim metodlaridan foydalanish, // "Maktab va hayot" ilmiy-metodik jurnal. № 3/2013. –B.26-28.
3. To'rayev A.. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent "Sano-standart" 2015yil
4. Pedagogika ensiklopediya. 2-jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti. Toshkent. 2015 yil.s-196
5. Pedagogik atamalar lug'ati. Toshkent. "Fan" nashriyoti. 2018 yil s- 64
6. O'zbek tilining izohli lug'ati Shukrona-H / 5 jildli. Beshinchi jild. A. Madvaliyev taxriri ostida. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti 2008 591 bet
7. SH.S.SHOYIMOVA, M.K.XOSHIMOVA, SH.R.MIRZAYEVA, M.M.QO'ZIBOYEVA "TA'LIM TEXNOLOGIYALARI" 2020y